ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTINING AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI FAOLIYATI

Olimova Shahrizoda Farhodjon qizi
E-mail: olimova29.06.2001@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21865068

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom Hamkorlik Tashkilotining ayollar huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyati keng tarzda yoritib berilgan bo‘lib, unda tashkilotning ayollar maqomini oshirish, ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish borasidagi dastur va tashabbuslar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan ayollar huquqi sohasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar o‘rganilib, maqolada statistik ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Bundan tashqari, maqolada ayollar huquqlarini himoya qilishda IHTning O‘zbekiston bilan hamkorligi qisqacha yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Islom Hamkorlik Tashkiloti, ayollar huquqlari, Dakka deklaratsiyasi, Jidda hujjati, Ayollarni rivojlantirish bo‘yicha Harakat rejasi, Ayollarni Rivojlantirish Tashkiloti, gender tengligi.

Аннотация. В данной статье всесторонне освещена деятельность Организации исламского сотрудничества (ОИС) в сфере защиты прав женщин. Рассмотрены программы и инициативы организации, направленные на повышение статуса женщин, расширение их участия в политической, социальной и экономической жизни. Также автором проанализированы правовые документы, принятые в области прав женщин, и статья дополнена статистическими данными. Кроме того, в статье кратко освещено сотрудничество ОИС с Узбекистаном в защите прав женщин.
Ключевые слова: Организация исламского сотрудничества, права женщин, Даккская декларация, Джиддский документ, План действий по развитию женщин, Организация по развитию женщин, гендерное равенство.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the activities of the Organization of Islamic Cooperation (OIC) in the field of women's rights protection. It examines the organization's programs and initiatives aimed at promoting the status of women and expanding their participation in political, social, and economic life. The author also analyzes legal documents adopted in the field of women's rights, and the article is supplemented with statistical data. In addition, the article briefly highlights the cooperation between the OIC and Uzbekistan in protecting women’s rights.
Keywords: Organization of Islamic Cooperation, women's rights, Dhaka Declaration, Jeddah Document, Plan of Action for the Advancement of Women, Women Development Organization, gender equality.

Dunyo taraqqiyotining hozirgi davrida insoniyat rivoji, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy tenglik va adolat hamda inson xavfsizligini kafolatlash borasidagi muammolarni samarali hal etish uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha tarmoq va sohalardagi tengligini amalda ta’minlash masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shu maqsadda jahon hamjamiyati ushbu jarayonlarga munosib munosabat bildirib, ularning huquqiy asoslarini yaratib kelmoqda. Dunyoning aksariyat davlatlari va tashkilotlar hamjihatlik va jipslikda yuqoridagi vazifalarni samarali hal etishda faol harakat qilib kelmoqda. Bugungi kunda ana shunday tashkilotlardan biri Islom Hamkorlik Tashkiloti

bo‘lib, u hududlarda ayollar huquqlarini himoya qilishdek dolzarb muammolarni hal etish hamda nazorat qilishda yetakchi tuzilmalardan biri hisoblanadi.

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) — hozirda 57 ta davlatni birlashtirgan hukumatlararo tashkilot (shu jumladan, MDHning olti davlati: Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston). Dastlab bu tashkilot **Islom Konferensiyasi Tashkiloti** deb atalgan. 2011-yil 28–30-iyun kunlari Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Tashqi ishlar vazirlari kengashi qaroriga ko‘ra, IKT **Islom Hamkorlik Tashkilotiga** aylantirildi. IHT davlatlarni diniy belgilar asosida birlashtiradi va a’zolar soni bo‘yicha BMTdan keyin ikkinchi eng yirik hukumatlararo tuzilma hisoblanadi.

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) 1969-yilda Marokashning Rabot shahrida bo‘lib o‘tgan Musulmon davlatlari rahbarlari konferensiyasida tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi — ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda islomiy birdamlikni ta’minlash, mustamlakachilik, neomustamlakachilik va irqchilikka qarshi kurashish, shuningdek, Falastinni ozod qilish tashkilotini qo‘llab-quvvatlash bo‘lgan. Taxminan 45 yil ichida IKT eng yirik va eng nufuzli hukumatlararo islomiy tashkilotga aylandi [1].

IHTning asosiy hujjati bo‘lgan Ustav (Nizom) Rabot konferensiyasidan 5 yil o‘tib, ya’ni 1974-yilda qabul qilingan. Bu holat IHTning xalqaro huquqiy subyektga aylanganini ko‘rsatadi. Inson huquqlari bilan bog‘liq qoidalar faqat IHT Ustavining kirish qismida (preambulasida) tilga olingan. IHTga a’zo davlatlarning inson huquqlariga bo‘lgan yondashuvi eng to‘liq tarzda 1983-yil 6–11 dekabr kunlari Dakka shahrida bo‘lib o‘tgan Tashqi ishlar vazirlari XIV konferensiyasida qabul qilingan “Islomda inson huquqlari to‘g‘risida”gi Dakka deklaratsiyasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu deklaratsiya “Islomda inson huquqlari bo‘yicha hujjat loyihasini qabul qilish” nomli 3/14-ORG-sonli rezolyutsiya orqali tasdiqlangan. Ta’kidlash joizki, bu Deklaratsiya tavsiyaviy (majburiy bo‘lmagan) xarakterga ega [2].

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) a’zo davlatlar orasida ayollar huquqlarini ilgari surish va himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi, bu jarayonda u islomiy qadriyatlarni inson huquqlarining universal standartlari bilan uyg‘unlashtirishga intiladi. IHT doirasida ayollar huquqlarini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat: **IHT Nizomi** (1969-yil, 2008-yilda yangilangan), **O‘n yillik harakatlar dasturi** (2005), **IHTning Inson huquqlari bo‘yicha Qohira deklaratsiyasi** (2021) va **Inson huquqlari bo‘yicha Mustaqil doimiy komissiyaning Ta’sis hujjati** (2011).

1969-yilda qabul qilingan va 2008-yilda yangilangan IHT Nizomi tashkilot faoliyatining strategik yo‘nalishlarini belgilab beradi. U a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va barcha fuqarolarning, jumladan ayollarning, huquqlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Hujjat adolat va tenglik tamoyillariga amal qilish muhimligini, bularning esa islomiy normalar va an’analarga mos bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

2005-yilda boshlangan O‘n yillik harakatlar dasturi a’zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qaratilgan bo‘lib, ayollarning holatini yaxshilash, ularga turli sohalarda teng huquqlar va imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

2021-yilda qabul qilingan Qohira deklaratsiyasi IHTning islomiy qadriyatlarni universal inson huquqlari bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini aks ettiradi. Deklaratsiyada ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Hujjat ayollarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikni bartaraf etish, shuningdek, mojarolar va inqirozlar sharoitida ularni himoya qilishni maqsad qiladi.

2011-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari bo‘yicha Mustaqil doimiy komissiyaning Ta’sis hujjati inson huquqlarini monitoring qilish va himoya qilish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. U, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga doir maxsus choralarni nazarda tutadi [3].

IHTning ushbu me’yoriy hujjatlari nafaqat ayollar huquqlarini huquqiy jihatdan mustahkamlab beradi, balki ularni himoya qilish va ilgari surish bo‘yicha institutsional mexanizmlarni ham shakllantiradi. Bu esa diniy va madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda, islomiy an’analarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) — dunyodagi ikkinchi yirik xalqaro tashkilot sifatida — ayollar taraqqiyotini asosiy tamoyillardan biri deb biladi. Bu, shuningdek, uning a’zo davlatlarining aksariyati uchun milliy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi va bu sohada samarali islohot va dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. 50 yildan ortiq vaqt davomida ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida IHT tarkibida maxsus boshqarma – “Madaniy, ijtimoiy va oilaviy ishlar bo‘yicha Bosh boshqarma” tashkil etilgan. Ushbu boshqarma musulmon oilasining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratgan.

IHT ayollar masalalari bo‘yicha bir necha marotaba yig‘ilishlar o‘tkazgan, ularning eng mashhuri — Ayollar masalalari bo‘yicha IHT Vazirlar konferensiyalaridir. Masalan, 2005-yildan boshlab IHT bir necha 10 yillik dasturlarni boshlagan, ularning eng so‘nggisi 2025-yilgacha davom etadi. Vazirlar Kengashi darajasida 2006–2021-yillar oralig‘ida faoliyat yuritgan “Ayollar vazirlari” bo‘limi ham mavjud bo‘lgan. Ushbu tuzilmalar orqali IHT ayollarning madaniy, ijtimoiy, oilaviy masalalari bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha ko‘plab qarorlarni qabul qilgan. 2005-yilda IHT “Musulmon ayollari va ularning islomiy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni” to‘g‘risida rezolyutsiyani qabul qilgan, unda ayollar masalalarini muhokama qilish uchun Vazirlar konferensiyasini chaqirish taklif qilingan. Ushbu qaror Ayollar bo‘yicha Vazirlar konferensiyasiga IHT a’zo davlatlarida ayollarning hayotning barcha sohalarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiluvchi Harakatlar rejasini (OPAAW) ishlab chiqishni topshirgan. Tavsiyalarga asoslangan holda, “Ayollarni rivojlantirish bo‘yicha IHT Harakatlar rejasi” (OPAAW) 2008-yilda Misrning Qohira shahrida bo‘lib o‘tgan ikkinchi Vazirlar konferensiyasida ishlab chiqilib, qabul qilingan. Ushbu hujjatning 4-5 bandlariga ko‘ra, “ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish maqsadida ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini yo‘q qilish, bu esa ijtimoiy adolat va erkak hamda ayol orasidagi tenglik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi” deb belgilangan [4].

“Ayollarni rivojlantirish bo‘yicha IHT Harakatlar rejasi” (OPAAW) – bu innovatsion yondashuv bo‘lib, IHT a’zo davlatlarining ayollar duch kelayotgan muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan yo‘l xaritasini ifodalaydi. 2016-yil 28–29-yanvar kunlari IRCICA (Islom tarixiy, san’at va madaniyat tadqiqot markazi)da “Ayollarni rivojlantirish bo‘yicha IHT Harakatlar rejasini (OPAAW) va uning amalga oshirish mexanizmlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha IHT seminar”i o‘tkazildi. Seminarda IHT Bosh kotibiyati vakillari hamda quyidagi IHTning quyi organlari va institutlari vakillaridan iborat ekspertlar ishtirok etdilar: IHT Madaniy, ijtimoiy va oilaviy ishlar bosh boshqarmasi; IHTning Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi; IHTning Jenevadagi vakolatxonasi; Islom tarix, san’at va madaniyat tadqiqot markazi (IRCICA); Islom mamlakatlari statistik, iqtisodiy, ijtimoiy tadqiqot va o‘quv markazi (SESRIC); Islom ta’lim, ilmiy va madaniy tashkiloti (ISESCO); Islom taraqqiyot banki (IDB); Islom savdo-sanoat va qishloq xo‘jaligi palatasi (ICCIA). Seminar davomida, a’zo davlatlar tomonidan qabul qilingan rejani saqlagan holda, uning yangilangan formati va qayta ko‘rib chiqilgan matnini taklif qilish, shuningdek, uni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan batafsil fikr yuritish maqsad qilingan edi Shunday qilib, IHT ushbu reja orqali ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga va ayollar hamda erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rmoqda. Bularning barchasi islomiy ijtimoiy adolat qadriyatlari asosida amalga oshirilmoqda [5].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, IHTda ayollar salohiyatini oshirish tamoyili Islom jamiyatlariga yo‘l ko‘rsatuvchi islomiy qonunlar asosida belgilanadi. Shu sababli, IHT “gender” va “ayollar salohiyatini oshirish” kabi terminlarni ishlatishda ehtiyotkorlik bilan

yondashadi. Terminologik jihatdan Islom jins (sex) va gender (ijtimoiy rol) tushunchalarini farqlaydi. IHT ayollarni qo‘llab-quvvatlashni o‘ziga xos islomiy nuqtai nazardan olib boradi. Tashkilot Islomning ayollar huquqlari borasidagi ustunliklarini ta’kidlaydi, ayollarning Islomdagi maqomi va huquqlari to‘g‘risida mavjud noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatishga harakat qiladi hamda ayollarning maqomini past ko‘rsatishga qaratilgan da’volarga javob beradi.

2020-yilda Islom Hamkorlik Tashkiloti tashabbusi bilan ayollar faoliyati bo‘yicha maxsus tashkilot Ayollarni Rivojlantirish Tashkiloti (WDO – Women Development Organisation) tashkil etildi. Bu tashkilot erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikka (gender tenglik) qaratilgan markaz bo‘lib, normativ qo‘llab-quvvatlash va siyosiy faoliyat, targ‘ibot va xabardorlikni oshirish, muvofiqlashtirish, hamda amaliy faoliyat kabi to‘rt asosiy yo‘nalishda ishlaydi. Tashkilot ayollar va qizlarning siyosiy, ijtimoiy, ta’limiy, madaniy va iqtisodiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, integratsiya qilish va salohiyatini oshirishni maqsad qilgan. Hozirgi vaqtda tashkilotda 19 ta a’zo davlat mavjud bo‘lib, IHTga a’zo boshqa davlatlarning ham qo‘shilishi kutilmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida 2021-yildagi Islom Hamkorlik Tashkiloti ayollar va rivojlanish hisobotida a’zo davlatlarda eng katta yutuqlar ayollar salomatligi sohasida kuzatilgan. Bu yo‘nalishdan keyin ta’lim, qarorlar qabul qilishda ishtirok, ijtimoiy himoya, zo‘ravonlikdan himoya, iqtisodiy salohiyatni oshirish, va nihoyat ayollarning inqirozli holatlardagi o‘rni bo‘yicha yutuqlar qayd etilgan. Masalan, a’zo davlatlarda qizlarning maktabga borish ko‘rsatkichi 1990-yilgi 45% dan 2020-yilda 75% ga oshgan. Iqtisodiy sohada ayollar tadbirkorligining ulushi 2000-2020-yillar orasida 18% dan 35% ga o‘sgan. Sog‘liqni saqlash sohasida ona o‘limi ko‘rsatkichi 100,000 tug‘ilish nisbatan olganda 380 dan 170 ga tushgan. Ayollarning davlatning siyosiy hayotida ishtirok darajasi ham oshib, parlamentlarda ayollar vakilligi o‘rtacha 8% dan 19% ga oshgan [6].

Shuningdek, 2016-yilda valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon tomonidan boshlangan ulkan “Vision 2030” dasturi doirasida Saudiya Arabistoni iqtisodiyot va ijtimoiy sohada keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu islohotlarning markazida ayollar salohiyatini oshirish masalasi turadi — bu barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda. 2017-yilda ayollar uchun avtomobil haydash bo‘yicha taqiqning olib tashlanishi, jinsiy zo‘ravonlikka qarshi qonunlarning joriy etilishi kabi yuridik va mehnat sohasidagi islohotlar Saudiya ayollarining ishchi kuchi va biznesdagi ishtirokini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, hukumat Fuqarolik holati to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritdi. Bu o‘zgarishlar ayollarga erkak vasiyligisiz mustaqil qaror qabul qilish, oila boshlig‘i sifatida tan olinishi, yashash joyini belgilashi, erkin sayohat qilishi va o‘z biznesini boshqarishi huquqini berdi. Natijada, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki 2016-yildagi 23,2 foizdan 2022-yilda 34,4 foizga oshdi — bu “Vision 2030” dasturida belgilangan 30 foizlik maqsaddan ham yuqori ko‘rsatkichdir. Hozirda kichik va o‘rta bizneslarning 45 foizi ayollar tomonidan boshqarilmoqda [7].

Biroq, bu taraqqiyot IHT mamlakatlari o‘rtasida turli sabablarga ko‘ra jiddiy farqlanadi. Masalan, so‘nggi yillarda Saudiya Arabistonidagi ayollarga berilgan qo‘llab-quvvatlash ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini sezilarli darajada kuchaytirdi, lekin Sudandagi ayollar og‘ir inqiroz va qurolli mojarolar tufayli og‘ir sharoitda yashamoqda.

Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) Bosh kotibiyati 2023-yil 23-mart kuni Burkina-Faso hukumati bilan ayollar salohiyatini oshirish va boshpanasiz hamda ko‘chirilgan ayollar va bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihani amalga oshirish bo‘yicha bitim imzoladi. Ushbu bitim IHT Bosh kotibiyati, Islomiy birdamlik jamg‘armasi va IHTning Nigerdagi vakolatxonasi delegatsiyasining 2023-yil 19–24 mart kunlari Burkina-Fasodagi qochoqlar va ko‘chirilganlar yashayotgan hududlarga uyushtirilgan tashrifi yakunida imzolandi. Tashrif

2021-yilning iyul oyida Qohira shahrida bo‘lib o‘tgan Ayollar bo‘yicha 8-Vazirlar konferensiyasida tasdiqlangan mazkur loyiha ijrosini kuzatish maqsadida amalga oshirilgan.

Shuningdek, hozirgi paytda IHT zo‘ravonlik va zo‘rlikdan himoya loyihalari bo‘yicha IHT mamlakatlarida ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish, tazyiqqa qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 6-noyabrda Saudiya Arabistoni Qirolligi taklifi bilan IHT Bosh kotibiyati tomonidan Jidda shahrida, ikki muqaddas masjid posboni qirol Salmon bin Abdulaziz Ol Saud homiyligida tashkil etilgan “Islomda ayollar: mavqe va huquqlarni mustahkamlash” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyada IHT Bosh Kotibi Janob Taho so‘zga chiqib, bu konferensiya Falastin xalqi, ayniqsa G‘azo aholisi, ayollar, bolalar, keksalar va begunoh tinch fuqarolar iztirob chekayotgan, Isroilning shafqatsiz tajovuzi davom etayotgan bir paytda o‘tkazilyotganini aytdi. U, ayniqsa, G‘azo ayollari bu fojianing eng zaif bo‘g‘iniga aylanganini, ularning tinchlik sharoitida qirg‘in qilinayotgani insoniyatni og‘ir mas’uliyat oldida turganini ta’kidladi. Bosh kotib bu konferensiya muhokamalarida Falastin ayollari, falastinliklar va muborak Al-Aqso masjidi huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro sa’y-harakatlarni kuchaytirish zarurligini urg‘uladi. U shuningdek, Afg‘on ayollarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barcha darajadagi ta’lim olish huquqi va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini ta’minlash borasida IHT konstruktiv muloqotni davom ettirishga qat’iy bel bog‘laganini bildirdi [8].

Bosh kotibning so‘zlariga ko‘ra, bu konferensiya Islom hamkorlik tashkiloti va ishtirokchi muassasalar tarixida Islomda ayollar huquqlarini ilgari surish va tasdiqlash yo‘lidagi muhim bosqich bo‘lib qoladi. Shuningdek, u ayollar salohiyatini oshirish masalasi tashkilotning doimiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishini ta’kidlab, u musulmon jamiyatlaridagi ayollar holatini yaxshilash uchun bir qancha tashabbus va hujjatlarni, jumladan, “Jidda hujjati”ni ilgari surishni e’lon qildi. Jidda hujjati — musulmon jamiyatlari va a’zo davlatlarning qonunchilik institutlari, inson huquqlari tashkilotlari va ziyolilari tomonidan ayollar huquqlarini ko‘rib chiqishda asos qilib olinishi kerak bo‘lgan nazariy va amaliy yo‘l xaritasidir [9].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ham Islom Hamkorlik Tashkilotining to‘laqonli a’zosi sifatida tashkilot bilan hamkorlikda ayollar huquqlarini muhofaza qilish, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish bo ‘yicha bir nechta dasturlar doirasida islohotlar olib bormoqda. Masalan, 2024-2025 yillarda Toshkentda “O‘zbekistonda ayollar huquqlari va Islom ta’limoti me’yorlarini o‘rganish” mavzusida seminarlar va treninglar tashkil qilindi. Bu tadbirlar BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA), O‘zbekiston Din ishlari qo‘mitasi, Al-Azhar universiteti va boshqa diniy hamda davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Seminarlar ayollar huquqlarini Islom nuqtai nazaridan himoya qilish, gender tenglikni targ‘ib qilish va diniy ta’limotlarni genderga sezgir yondashuv bilan uyg‘unlashtirishga qaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston vakili Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasida IHTning Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi tarkibiga 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan davr uchun saylandi. Bu komissiya ayollar va bolalar huquqlarini ilgari surish, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash va insonparvarlik muammolari bo‘yicha maslahatlar beradi. IHT hamkorligida O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash, zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha yangi qonunchilik va siyosatlarni ishlab chiqish jarayonlari olib borilmoqda. 2023-yilda O‘zbekistonga IHT huzuridagi Ayollar taraqqiyoti tashkilotiga a’zo bo‘lish taklifi berilib, bu tashkilot orqali ayollar huquqlari va imkoniyatlarini yanada mustahkamlash maqsad qilingan [10].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqish mumkinki, Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida ko‘p qirrali faoliyat olib borib, islom qadriyatlari

va zamonaviy xalqaro standartlar o‘rtasida muvozanat yaratishga harakat qilmoqda. IHTning ushbu sohadagi asosiy yutuqlari normativ-huquqiy bazaning shakllanishida, ayollarga berilgan ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlarning kengaytirilishida, sog‘liqni saqlash va ujtimoiy himoyaning kuchaytirilganida yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq, olib borilgan sa’y-harakatlarga qaramay, sohada dolzarb muammolar yo‘q emas. Xususan, a’zo davlatlar o‘rtasida ayollar huquqlarini amalga oshirish darajasida katta farqlar mavjud. Shuningdek, ba’zi hududlarda an’anaviy qarashlar va zamonaviy huquqlar o‘rtasida ziddiyatlar haligacha saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, ijro mexanizmlari yetarlicha kuchli emasligi ham ikkilamchi muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Islom Hamkorlik Tashkiloti ayollar huquqlarini himoya qilish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ygan bo‘lsa-da, to‘liq tenglik va himoyaga erishish uchun hali ko‘p ish qilish kerak. Islom qadriyatlari va universal inson huquqlari tamoyillarini uyg‘unlashtirish orqali barcha ayollarning inson qadr-qimmatiga loyiq hayot kechirishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ф. М. Ахмедова., А.А. Корнилов. «ОРГАНИЗАЦИЯ ИСЛАМСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА» И ВЫРАБОТКА МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЗИЦИИ МУСУЛЬМАНСКОЙ УММЫ. https://scispace.com/pdf/organizatsiia-islamskogo-sotrudnichestva-i-vyrabotka-45qnxvzk5n.pdf
2. А.Х.Абашидзе., А.М.Солнцев., Д.В.Воробьев. Компетенция Организации Исламского Сотрудничества в сфере защиты прав человека. Международное право и сравнительное правоведение. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 5, Юриспруд. 2013. № 2 (19).
3. “Muslim Women: A Human Rights Perspective on balancing cultural traditions and practices with contemporary needs for social development”. An Article by Prof. Noura Zaid Alrshoud Executive Director of the OIC-IPHRC Secretariat. https://oic-iphrc.org/2025/2/211445-19022025%20Kabul%20Event%20Article_on_%20Women_EV-19Feb25.pdf
4. OIC Plan of Action of the Advancement of Women, Cairo Plan of Action foe Women, 2008. https://www.oic-oci.org/docdown/?docID=3025&refID=1112
5. OIC Workshop for Reviewing the OIC Plan of Action for the Advancement of Women (OPAAW) and Implementation Mechanisms, 9 February, 2016. https://www.ircica.org/activities/conferences/oic-workshop-for-reviewing-the-oic-plan-of-action-for-the-advancement-of-women-opaaw-and-implementation-mechanisms
6. OIC Women and Development report 2021.© June 2021 | Statistical, Economic and Social Research and Training Centre for Islamic Countries (SESRIC). https://sesricdiag.blob.core.windows.net/sesric-site-blob/files/article/769.pdf
7. https://www.atlanticcouncil.org/blogs/menasource/vision-2030-women-economy-saudi-arabia/
8. At the “Women in Islam: Status and Empowerment” Conference: Secretary-General Affirms OIC’s Commitment to Defending the Rights of Muslim Women. https://www.oic-oci.org/topic/?t_id=39880&t_ref=26741&lan=en
9. Badriya Rawy. The Advancement of Women in the Organization of Islamic Cooperation. Politics and Religion Journal 19, no. 1: 91-105Original articlehttps://doi.org/10.54561/prj1901091r Received: May 5, 2024; Accepted: July 23, 2024
10. O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti: hamkorlik yo‘lida yana bir qadam. http://insonhuquqlari.uz/oz/news/ozbekiston-va-islom-hamkorlik-tashkiloti-hamkorlik-yolida-yana-bir-qadam